



## DINIY USLUBNI YUZAGA KELTIRUVCHI LINGVISTIK OMILLAR

Xojiyeva Shahzoda

Lingvistika (o'zbek tili) 2-kurs magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada diniy uslubning boshqa nutq uslublaridan farqi va uni yuzaga chiqaruvchi lingvistik omillar haqida so'z yuritiladi va ular misollar orqali dalillanadi.

**Kalit so'zlar:** nutq uslubi, rasmiy uslub, ilmiy uslub, badiiy uslub, publitsistik uslub, so'zlashuv uslubi, diniy uslub, diniy leksema, lingvistik omil.

**Abstract.** This article discusses the difference between the religious style and other speech styles and the linguistic factors that create it, and proves them through examples.

**Key words:** speech style, formal style, scientific style, artistic style, journalistic style, colloquial style, religious style, religious lexeme, linguistic factor.

**Абстрактный.** В данной статье рассматривается отличие религиозного стиля от других речевых стилей и лингвистические факторы, его создающие, и доказываются на примерах.

**Ключевые слова:** стиль речи, формальный стиль, научный стиль, художественный стиль, публицистический стиль, разговорный стиль, религиозный стиль, религиозная лексема, языковой фактор.

O'zbek adabiy tilida 5 ta nutq uslubi mavjud: 1) rasmiy uslub; 2) ilmiy uslub, 3) badiiy uslub; 4) publitsistik uslub; 5) so'zlashuv uslubi<sup>1</sup>. Ular o'zlarining leksik, grammatik, sintaktik, morfemik xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. So'nggi yillarda diniy uslub atamasi ham keng kirib kelmoqda. Chunki diniy matn uslubi o'ziga xos lingvistik omillarga egaligi ko'plab tadqiqotlar markazida turibdi. Diniy uslub so'zlashuv uslubidagi kabi kichraytirish-erkalash leksemalari va affikslari, argo, jargon, sleng (basharang qursin, ko'zini yashirishga joy topolmay, ketqopti) kabi til birliklarining qo'llanmasligi, affikslar qo'shilishi natijasida o'zak-negizda qisqartmalar bo'lmasligi yoki so'z tarkibida tovushlar o'rin almashishi kabi xususiyatlar uchramasligi; rasmiy uslubga xos bo'lgan lug'aviy birliklar (tilxat, tushuntirish xati, ariza, telegramma va b.) ning qo'llanmasligi va matn shakllantirish qolipining majburiymasligi, ya'ni rasmiy matnlar ma'lum qoidaga qat'iy bo'ysunadi (diniy matnlarda bunday emas), ilmiy uslubning o'ziga xos terminlaridan, "xulosa qilish mumkinki", "isbotlab beradi", "hisoblanadi" kabi frazeologik birliklardan foydalanmasligi<sup>2</sup> jihatidan farq qilsa-da, ba'zi xususiyatlari bilan badiiy uslub, publitsistik uslubga yaqin turadi. Xususan, publitsistik uslubdagi kabi savol beruvchining ham, javob beruvchining ham bir shaxs bo'lishi ("Dunyo va oxiratning eng sharafli axloqini senga o'rgatayinmi? Seni tark etganning holiga

<sup>1</sup> A. Shomaqsudov va b. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent:, O'qituvchi, 1983. – .5-6.

<sup>2</sup>Mukarramov. M. Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili. – Toshkent.: "Fan", 1984.



**rioyat, seni mahrum etganga yaxshilik va ikrom, senga zulm etganga kechirimli muojala.” (Oyat))** yoki badiiy uslubdagi kabi o‘xshatish, jonlantirish, talmeh kabi tasvir vositalaridan (“Iymon keltirgan zotlar uchun dillari Allohning zikriga va nozil bo‘lgan haqqa (ya’ni Qur’onga) moyil bo‘lish vaqti kelmadimi?! Yana ular uchun ilgari kitob ato etilgan, so‘ng payg‘ambarlaridan keyingi muddat uzaygach, dillari qotib ketgan kimsalar (ya’ni yahudiy va nasroniylar) kabi bo‘lib qolmaslik vaqti kelmadimi? Ulardan ko‘plari fosiqdirlar (ya’ni itoatsizdirlar)”. (Hadid surasidan.)) foydalanilishi bilan umumiylik kasb etadi.

Diniy uslubni yuzaga keltiruvchi lingvistik omillar diniy semali leksemalar: Alloh, Tangri, Rasululloh, Muhammad, Azozil, Odam, Havvo kabi atoqli otlar, Jablit, Rafiq, Ruq‘a, Raqobil, Ko‘kboil, Mo‘un, Nubyoyil, Rafqa, Siftboil, Aribo, Nurboil kabi osmon nomlari, Ramko, Julza, Arqa, Harna, Malso, Sijjin, Ajibo kabi yer nomlari, do‘zax, jannat, farishta, iblis, jin, ibodat, hidoyat, ajr, qiyomat, oxirat, shahid, mo‘min, musulmon, sajda qilmoq, xutba o‘qimoq, salovat aytmoq kabilardir.

“Alloh sevgisining alomati Qur’on sevgisidir. Qur’on sevgisining alomati Payg‘ambar sevgisidir. Payg‘ambar sevgisining alomati uning sunnatiga va go‘zal axloqiga tobe’ bo‘lmoqdir. Sunnatga tobe’ bo‘lishlikning alomati oxirat hayotini unutmastir. Oxirat hayotini unutmastirning alomati dunyoga hirs qo‘yishdan, harom va g‘ayrimashru’ daromad yig‘ishdan qochishlikdir.”<sup>3</sup>

Shuningdek, ey Parvardigor, yo Rabbim, ey Rasululloh, ey Muhammad, yo Tangrim, Parvardigoro, iloho, ey Azroil kabi va ey ko‘ngil, ey Ka’ba singari jonsiz narsalarga murojaat undalmalarining kelishi:

“Ey ko‘ngil! Sen undaylarga hargiz yaqin bo‘lmagaysen! Har on Rasululloh (s.a.v.) huzuridaman, deb o‘ylagilki, harakatlaringda ul zoti sharifning sunnatlariga zid holat chiqib qolmasin. Musibatlariga duchor bo‘lganda chida va sabr et. Gunohkorlarga va Payg‘ambarimizning yo‘llaridan chiqqanlarga mag‘firat tilab duolar qil...”<sup>4</sup>

Olohndan xitob keldi: “Ey Azroil, qattiq ko‘ngilli ekansan. Shunday taqdir qildimki, hamma tiriklarning jonini senga oldiraman”.<sup>5</sup>

“Ayting, (ey Muhammad!) “Agar Allohni sevsangiz menga ergashinglar. Shunda Alloh sizlarni sevadi va gunohlaringizni mag‘firat etadi”. (Oyat.)

“Parvardigoro, Sen pokdursan, Sen o‘rgatgandan boshqa hech bir ilmimiz yo‘qdir, o‘zgasini bilmasmiz”<sup>6</sup>.

<sup>3</sup> Tohir Malik. Odamiylik mulki. – Toshkent: “Sharq”, 2017.

<sup>4</sup> Tohir Malik. Odamiylik mulki. – Toshkent: “Sharq”, 2017.

<sup>5</sup> Nosiruddin Rabg‘uziy. Qissasi Rabg‘uziy. – Toshkent: “Yozuvchi”, 1991.

<sup>6</sup> Nosiruddin Rabg‘uziy. Qissasi Rabg‘uziy. – Toshkent: “Yozuvchi”, 1991.





Iblis: “Iloho, yuz ming yil ibodat qildim, mnga uning evazini bergil!”

yoki alhamdulillah, subhanalloh, inshaaloh kabi birliklarning qo‘llanilishi;

Janobi Rasululloh, Alloh taolo, Alloh taborak va tolo, janobi Parvardigor, Olloh subhanahu va taolo, Muhammad (s.a.v), hazrati Rasululloh (s.a.v), Payg‘ambar alayhissalom, Odami safiy alayhissalom, kabi sifatlar bilan birga kelishi;

Shuningdek, ey Parvardigor, yo Rabbim, ey Rasululloh, ey Muhammad, yo Tangrim, Parvardigoro, iloho, ey Azroil kabi va ey ko‘ngil, ey Ka‘ba singari jonsiz narsalarga murojaat undalmalarining kelishi:

“Ey ko‘ngil! Sen undaylarga hargiz yaqin bo‘lmagaysen! Har on Rasululloh (s.a.v.) huzuridaman, deb o‘ylagilki, harakatlaringda ul zoti sharifning sunnatlariga zid holat chiqib qolmasin. Musibatlarga duchor bo‘lganda chida va sabr et. Gunohkorlarga va Payg‘ambarimizning yo‘llaridan chiqqanlarga mag‘firat tilab duolar qil...”<sup>7</sup>

Diniy matnlarda ko‘p hollarda sinonim, omonim, paronimlarga qaraganda antonim so‘zlardan foydalaniladi.

“Ollah taolo farishtalarni o‘tning yorug‘ligidan, parilarni esa o‘tning alangasidan yaratdi. Ularning asllari bo‘lsa hamki, uch narsa bilan farqlanadilar. Buri shuki, farishtalar nurdan, parilar alangadan bino bo‘lgandilar. Ikkinchisi shuki, farishtalar malak deb, parilar esa jin deb ataldi. Uchinchisi shuki, farishtalarning makoni osmonda, jinlarniki esa yerda bo‘ladi.”<sup>8</sup>

Masalan, ushbu matn boshdan oyoq antitezaga qurilgan: *farishta-pari, nuralanga, malak-jin, osmon-yer. (Diniy jihatdan bo‘lingan.)*

“U tuproqda oq, qora, chuchuk, achchiq, sariq, yashil, qizil, ko‘k, qattiq, yumshoq, toza, nopok, totli va totlig‘siz - hammasining suvi bor edi. Shul sababdan odam farzandlari bir-biriga o‘xshamaslar, kimi poku, kimi nopok, kimi betobu kimi sog‘lom, kimi qorayu kimi oq, kim sarig‘u kimi qizil, kim esligu kimi aqlsiz, kimi chuchuk so‘zliyu kimi achchiq so‘zli, kimi qattiq ko‘ngilliyu kimi yumshoq ko‘ngillidirlar.”<sup>9</sup>

Bu parchada esa oq-qora, chuchuk-achchiq, sariq-yashil, qizil-ko‘k, qattiq-yumshoq, pok-nopok, totli-totlig‘siz kabi leksemalar.

Sintaktik gradatsiyadan foydalanilishi:

Shunda farmon keldi: “Ey Odam, kunduzning ikki qismi bordir, bir qismi o‘tdi, biri qoldi. Kun botguncha sabr qilgil. Bir kun ro‘za tutgil (U kun - ashuro kuni edi).

<sup>7</sup> Tohir Malik. Odamiylik mulki. – Toshkent: “Sharq”, 2017.

<sup>8</sup> Nosiruddin Rabg‘uziy. Qissasi Rabg‘uziy. – Toshkent: “Yozuvchi”, 1991.

<sup>9</sup> Nosiruddin Rabg‘uziy. Qissasi Rabg‘uziy. – Toshkent: “Yozuvchi”, 1991.



Men sen bilan bir ish qilayin, toki bu ishdan men xushnud bo'layin, gunohingni yorlaqayin, jannatga kirgizayin". (Qissasi Rabg'uziydan.)

Bu parchada "xushnud bo'layin, gunohingni yorlaqayin, jannatga kirgizayin" gaplarida ma'no pastdan tepaga kuchayib borgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A. Ochildiyev. Dinshunoslik asoslari. –Toshkent, 2013
2. Azim Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. "O'zbekiston Nosiruddin Rabg'uziy. Qissasi Rabg'uziy. – Toshkent: "Yozuvchi", 1991.
3. Mukarramov. M. Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili. – Toshkent.: "Fan", 1984.
4. Tohir Malik. Odamiylik mulki. – Toshkent: "Sharq", 2017.
5. A.Shomaqsudov va b. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent:, O'qituvchi, 1983.
6. milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. –Toshkent, 2002.
7. Uluqov N.M. O'zbekcha diniy matnlar ekzotik leksikasi: Filol.fan.nomz...diss. avtoref. – Toshkent, 1997.
8. <http://www.dissercat.com/content/yazyk-tatarskoi-religi-ozno-didakticheskoi-litera-tu-ry-na-materiale-traktata-poislamskoi-yuri#ixzz5b5PQjVGg>.
9. <http://www.dissercat.com/content/religioznaya-leksika-i-frazeologiya-kumykskogo-yazyka#ixzz5jLiCg9rY>.
10. [http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/38999/1/urgu1550\\_d.pdf](http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/38999/1/urgu1550_d.pdf).
11. <https://www.openrepository.ru/article?id=675824>.